

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2.	Fosforli o‘g‘itlar chiqindilari asosida fibroko‘pikfosfogipsli bloklarning optimal tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasi yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish chiqindisi (fosfogips) asosida ekologik xavfsiz, energiya tejamkor va yuqori fizik-mexanik xossalarga ega fibroko‘pikfosfogipsli bloklarning ilmiy asoslangan optimal tarkibi ishlab chiqiladi; fibroko‘pikfosfogipsli kompozitsiya uchun armaturalovchi tolalarning maqbul turi, miqdori va geometrik parametrlariga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi; fibroko‘pikfosfogipsli bloklarning fizik-mexanik, issiqlik-texnik, ekspluatatsion va ekologik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy asoslangan natijalar olinadi hamda ularning sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi; materialning mikrostrukturasi, fazaviy tarkibi va struktura hosil bo‘lish qonuniyatlari aniqlanib, tola bilan armaturalashning kompozit xossalariga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi; mahsulot tarkibi va texnologik parametrlarining sifat ko‘rsatkichlariga ta'sirini ifodalovchi matematik model hamda optimal ishlab chiqarish parametrlari ishlab chiqiladi; fibroko‘pikfosfogipsli bloklarni ishlab chiqarishning texnologik reglamenti, tajriba (pilot) namunasi va sanoatga joriy etish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi; fosfogips chiqindilarini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega innovatsion qurilish materialiga aylantirish texnologiyasi yaratiladi hamda uning iqtisodiy va ekologik samaradorligi ilmiy asosda baholanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari laboratoriya va yarim sanoat sharoitlarida tajriba-sinovdan o‘tkaziladi. Ishlab chiqilgan texnologiya asosida fibroko‘pikfosfogipsli bloklarning tajriba partiyasi tayyorlanadi. Tayyorlangan mahsulotlarning fizik-mexanik, deformatsion, issiqlik-texnik va radiatsion xavfsizlik ko‘rsatkichlari amaldagi GOST va O‘z DSt standartlari talablari asosida sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari asosida intellektual mulk obyektlari (ixtiro patenti) uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyanomalar hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi” ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.